



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 24-oktabr

VI-104-105-7-0-K/24

Samarqand viloyati

**Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”
VI-94-126-7-0-K/23-son qaroriga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari J.Qo‘chqorovning 2024-yil 21-avgustdagи (03/1-1308-son) topshiriq xati, viloyat hokimi birinchi o‘rinbosari F.Abilovning 2024-yil 12-avgustdagи (763/01-30-son) bildirgisi hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 30-avgustdagи (02/01-32/169-son) xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Viloyat hokimi birinchi o‘rinbosari (F.Abilov) hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” VI-94-126-7-0-K/23-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” VI-94-126-7-0-K/23-son qaroriga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilsin.

3. Shahar va tuman hokimliklariga mahalliy byudjetlariga o‘zgartirish kiritish masalasini xalq deputatlari shahar va tuman Kengashlari muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), G‘aznachilik boshqarmasi (O.Hamdamov) byudjet mablag‘laridan qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalанишни nazorat qilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati-matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” (N.Norbekov) ushbu qarorni ommaviy axborot vositalarida chop etilishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining birinchi o‘rbinosari (F.Abilov) zimmalariga yuklansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



S.Usmonov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining
2024-yil 24-oktabrdagi
VI-104-105-7-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” VI-94-126-7-0-Q/23-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar

- a) 7-bandи “b” kichik bandining oltinchi xatboshi chiqarib tashlansin:
- b) 7-bandи “v” kichik bandi quyidagi to‘qqizinchi band bilan to‘ldirilsin:
“davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar”
- v) 2-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2023-yil 27-dekabrdagi
VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Samarqand viloyatining viloyat byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|-----|-----------------|------------------------|
| | JAMI | 2 908 455 800,0 |

| | | |
|----|--|-----------------|
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 224 007 300,0 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 1 659 911 600,0 |
| 3 | Aksiz solig‘i, jami | 242 788 800,0 |
| | <i>shu jumladan:</i> | |
| | - <i>yakuniy iste ‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i</i> | 242 788 800,0 |
| 4 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 96 183 800,0 |
| 5 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 144 724 900,0 |
| 6 | Davlat boji | 229 551 000,0 |
| 7 | Davlat tashkilotlari foyda solig‘i | 5 606 000,0 |
| 8 | Davlat mulki obyektlarini sotishdan olingan daromadlar | 12 250 000,0 |
| 9 | Jarimalar | 185 151 000,0 |
| 10 | Yig‘imlar | 108 281 400,0 |

g) 4-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2023-yil 27-dekabrdagi
VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun tuman va shaharlar mahalliy byudjetlariga umum davlat soliqlaridan ajratmalar me'yori

| T/R | Shahar va tumanlar nomi | Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | Yakuniy iste’mol-chilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | Yig‘imlar (bojxona yig‘im-laridan tashqari) | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Yuridik shaxslardan olna-digan foyda solig‘i | Aylanmadan olna-digan soliq | Davlat mulki obyektlarini sotishdan olingan daromadlar | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlar |
|-----|-------------------------|---------------------------------------|--|---|---|---|--|-----------------------------|--|---------------------------------------|
| 1 | Samarqand shahri | 20 | 20 | 20 | 10 | 10 | 30 | 100 | 50 | 100 |
| 2 | Kattaqo‘rg‘on shahri | 100 | 100 | 100 | 100 | 40 | 80 | 100 | 50 | 100 |
| 3 | Oqdaryo tumani | 100 | 100 | 30 | 30 | 30 | 60 | 100 | 50 | 100 |
| 4 | Bulung‘ur tumani | 100 | 100 | 40 | 100 | 50 | 70 | 100 | 50 | 100 |
| 5 | Jomboy tumani | 40 | 40 | 30 | 100 | 40 | 70 | 100 | 50 | 100 |
| 6 | Ishtixon tumani | 100 | 100 | 50 | 100 | 50 | 70 | 100 | 50 | 100 |
| 7 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 50 | 50 | 50 | 20 | 40 | 60 | 100 | 50 | 100 |
| 8 | Qo‘shrabot tumani | 100 | 100 | 100 | 100 | 50 | 70 | 100 | 50 | 100 |
| 9 | Narpay tumani | 100 | 100 | 60 | 100 | 50 | 70 | 100 | 50 | 100 |

| | | | | | | | | | | |
|----|--------------------|-----|-----|-----|-----|----|----|-----|----|-----|
| 10 | Payariq tumani | 100 | 100 | 70 | 100 | 50 | 80 | 100 | 50 | 100 |
| 11 | Pastdarg'om tumani | 30 | 30 | 20 | 100 | 40 | 50 | 100 | 50 | 100 |
| 12 | Paxtachi tumani | 100 | 100 | 100 | 100 | 50 | 80 | 100 | 50 | 100 |
| 13 | Samarqand tumani | 40 | 40 | 10 | 10 | 10 | 70 | 100 | 50 | 100 |
| 14 | Nurobod tumani | 100 | 100 | 100 | 100 | 30 | 80 | 100 | 50 | 100 |
| 15 | Urgut tumani | 50 | 50 | 50 | 100 | 40 | 10 | 100 | 50 | 100 |
| 16 | Toyloq tumani | 50 | 50 | 30 | 100 | 40 | 50 | 100 | 50 | 100 |